

**YANGI O‘ZBEKISTONDA KONSTITUTSIYAVIY ISLOHOTLARNING  
HUQUQIY ASOSLARI VA AHAMIYATI****Tursunov Jasurbek Ruslan o‘g‘li***Andijon Davlat Pedagogika Instituti Ijtimoiy va amaliy fanlar fakulteti**Mig‘maht yo‘nalishi 201-guruh talabasi*<http://jasurt620@gmail.com>

**ANNOTATSIYA:** *Ushbu maqolada Yangi O‘zbekiston sharoitlarida amalga oshirilgan Konstitutsiyaviy islohotlarning, ya‘ni 2023-yil 30-aprelda qabul qilingan Konstitutsiyaning huquqiy va nazariy asoslari tahlil qilinadi. Islohotlarning asosiy maqsadlari – inson, uning huquq va erkinliklarini Oliy qadriyat deb e‘lon qilish, ijtimoiy davlat, huquqiy davlat va xalq hokimiyatchiligi tamoyillarini mustahkamlashdan iborat. Annotatsiyada Yangi O‘zbekistonda konstitutsiyaviy islohotlar mamlakatda huquqiy tizimni takomillashtirish va demokratik davlat qurishni mustahkamlashga qaratilgan bo‘ladi. Konstitutsiyaviy islohotlar fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta‘minlashda, davlat organlari faoliyatini samarali tashkil etishga va qonun ustuvorligini ta‘minlashga yordam beradi. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 2-moddasida aytib o‘tilganidek Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat va uning organlari mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida ma‘suldir.*

**Kalit so‘zlar:** *Yangi O‘zbekiston, Konstitutsiyaviy islohotlar, Inson qadri, Ijtimoiy davlat, Huquqiy davlat, Parlamentarizm.*

**АННОТАЦИЯ:** *В данной статье анализируются правовые и теоретические основы конституционных реформ, реализованных в условиях Нового Узбекистана, в частности Конституции, принятой 30 апреля 2023 года. Основные цели реформ заключаются в провозглашении человека, его прав и свобод высшей ценностью, а также в укреплении принципов социального государства, правового государства и народовластия. В аннотации подчеркивается, что конституционные реформы в Новом Узбекистане направлены на совершенствование правовой системы страны и укрепление демократического государства. Конституционные реформы способствуют обеспечению прав и свобод граждан, эффективной организации деятельности государственных органов и обеспечению верховенства закона. Как отмечается в статье 2 Конституции Республики Узбекистан в новой редакции, государство выражает волю народа и служит его интересам. Государство, его органы и должностные лица ответственны перед обществом и гражданами.*

**Ключевые слова:** *Новый Узбекистан, конституционные реформы, ценность человека, социальное государство, правовое государство, парламентаризм.*

**ANNOTATION:** *This article analyzes the legal and theoretical foundations of constitutional reforms implemented in the context of the New Uzbekistan, particularly the Constitution adopted on April 30, 2023. The main objectives of the reforms are to declare the individual, their rights and freedoms as the highest value, as well as to strengthen the principles of a social state, rule of law, and people's governance. The annotation emphasizes that constitutional reforms in New Uzbekistan are aimed at improving the country's legal system and strengthening the development of a democratic state. These reforms contribute to ensuring citizens' rights and freedoms, enhancing the efficiency of public administration, and upholding the rule of law. As stated in Article 2 of the Constitution of the Republic of Uzbekistan in its new version, the state expresses the will of the people and serves their interests. The state, its bodies, and officials are accountable to society and citizens.*

**Keywords:** *New Uzbekistan, constitutional reforms, human dignity, social state, rule of law, parliamentarism.*

## KIRISH

O‘zbekiston Respublikasida Yangi O‘zbekiston tushunchasi dastavval 2016 yildan to hozirgacha bo‘lgan bosqich, davrlarni o‘z ichiga oladi. O‘zbekiston Respublikasida 2023-yil 30-aprelda referendum asosida qabul qilingan yangi konstitutsiyaviy islohotlarni mamlakat tarixida yangi bosqichni boshlab berdi. Yangi tahrirdagi qabul qilingan Konstitutsiyaning matnini 65 %ga yangilash orqali jamiyatdagi tub o‘zgarishlarni va Yangi O‘zbekistonning strategik taraqqiyot g‘oyalarini oliy huquqiy hujjatga kiritishdan iborat bo‘ldi. Maqolada aynan shu islohotlarning fundamental huquqiy asoslari va ularning davlat qurilishi hamda jamiyat hayotidagi ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Konstitutsiyaviy islohotlarning nazariy asoslari, O‘zbekistonning „Inson-

jamiyat -davlat" tamoyiliga o‘tishga bog‘liq. Yangi tahrirda Konstitutsiya moddalari soni 128 tadan 155 taga oshirildi. Eng muhimi, Konstitutsiyaga „O‘zbekiston - suveren, demokratik, huquqiy ijtimoiy dunyoviy davlat" degan ta'rif kiritildi (1 –Modda). Bu yerda ijtimoiy davlat va inson huquqlari to‘g‘ridan - to‘g‘ri ta'sir ko‘rsatuvchi normalar sifatida mustahkamlanadi. Huquqiy davlat tamoyili: Islohotlar O‘zbekistonda adliya va sud hokimiyatining mustaqilligini oshirishga qaratilgan bo‘ladi. Xususan birgina „Miranda" qoidasi - Ushlanayotgan shaxsning huquqlarini tushuntirish, xalqaro normalarning kiritilishi huquqiy tartib qoidaning yuksakligini anglatadi.

## ASOSIY QISM

Birgina O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 11-moddasi. O‘zbekiston Respublikasi Davlat hokimiyati tizimi hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo‘linish prinsipiga asoslanadi deb aytib o‘tilgan. Ijtimoiy davlat va iqtisodiy huquqlarning mustahkamlanishi. Yangi Konstitutsiyaning eng asosiy yutuqlaridan biri, O‘zbekistonning ijtimoiy davlat sifatidagi majburiyatini to‘liq aks ettirganidir. Mahalliy va xalq hokimiyatchiligi: Fuqarolarning o‘zini–o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risidagi qabul qilingan 1999-yilgi qonunga asoslanadi. Bu hokimiyatning tepadan pastga emas, pastdan yuqoriga o‘rnatilish tamoyilini mustahkamlaydi. Inson va jamiyat bu bir-biri bilan uzviy bog‘liqligi, tizimini tashkil qiladi. Insonlarning qadr-qimmatini haqida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida bir qancha ta’rif berib o‘tilgan. Birgina 21-moddasida Har bir inson o‘z shaxsini erkin kamol toptirish huquqiga ega. Hech kimga uning rozilgisiz qonunchilikda belgilanmagan majburiyat yuklatilishi mumkin emas. Inson o‘z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, jamiyat hamda davlatning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga putur yetkazmasligi shart deb aytib o‘tilgan. Inson jamiyatdan tashqari o‘zining mohiyatini yo‘qotadi. Shuning uchun „Inson manfaatlari har narsadan ulug‘dir“ deb bejizga aytishmagan. Birgina O‘zbekiston Respublikasi Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga nazar tashlaydigan bo‘lsak 2-bo‘limi Inson va Fuqaroning asosiy huquq va erkinliklari, burchlari keltirilgan bo‘lsa, uning 19-moddasida O‘zbekiston Respublikasida insonning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume’tirof etilgan normalariga binoan hamda ushbu Konstitutsiyaga muvofiq e’tirof etiladi va kafolatlanadi. Inson huquq va erkinliklari har kimga tug‘ilganidan boshlab tegishli bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklariga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e’tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeidan qat’iy nazar qonun oldida tengdirlar deb aytib o‘tilgan. Imtiyozlar faqat qonunga muvofiq belgilanadi va ijtimoiy adolat prinsipiga mos bo‘lishi shart. Yangi tahrirdagi konstitutsiyaning 7 bobida SHaxsiy huquq erkinliklar deb keltirib o‘tilgan. Huquq va erkinliklari haqida gap ketar ekan Konstitutsiyaning birgina 25-moddasida Yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqidir va u qonun bilan muhofaza qilinadi. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og‘ir jinoyatdir. O‘zbekiston Respublikasida o‘lim jazosi ta’qiqlanadi deb aytilgan. Parlamentarizm - ya’ni fransuzcha „Parle“ gapirmoq so‘zidan olingan bo‘lib, xuddi demokratizmga o‘xshash termin bo‘lib, bunda ham ko‘pchilik ozchilikka bo‘ysunadi va munozaralar muhokama ovoz berish yo‘li bilan hal qilinadi. Parlamentarizmning demokratizmdan farqi demokratizmda umumiy xalq ovoz bersa, parlamentarizmda esa xalq saylagan maxsus vakillar ovoz beradi. Ya’ni ular xalq nomidan so‘z yuritadilar.

Xulosa qilib shuni aytib o‘tish lozimki Yangi O‘zbekistondagi Konstitutsiyaviy islohotlarning mamlakat taraqqiyotining fundamental huquqiy asoslarini yaratadi.

Konstitutsiyaga kiritilgan yangi normalar ayniqsa, ijtimoiy majburiyatlar Yangi O‘zbekistonda Konstitutsiyaviy islohotlarning natijasi bo‘lmish konstitutsiyaviy huquqi asoslarining o‘rni va ahamiyati kattadir. Yangi O‘zbekistonda olib borilayotgan Konstitutsiyaviy islohotlar mamlakatning demokratik taraqqiyot yo‘lini mustahkamlaydi. Konstitutsiyaviy islohotlar bizga huquqiy islohotlarni yangilabgina qolmay huquqning eng muhim tayanchi bo‘lib xizmat qilib kelmoqda. Bu o‘zgarishlarning barchasi bizga huquqiy tizimning takomillashuviga, jamiyatda ham huquqiy ong va madaniyatning yuksalishiga xizmat qiladi. Konstitutsiya Yangi O‘zbekistonning inson qadrini oliy qadriyat deb huquqiy jihatdan tasdiqlaydi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahriri). – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. – 30-aprel.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 1999.
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. – (1-, 2-, 11-, 19-, 21-, 25-moddalar).
4. Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro huquqning umume’tirof etilgan normalari va prinsiplari.